Oxunova D.Q
Farg‘ona davlat universiteti,
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi p.f.b.f.d PhD

INKLYUZIV TA’LIMNING XALQARO MODELI: JAHON TAJRIBASIDAN O‘ZBEKISTON AMALIYOTIGA

Annotatsiya: *maqolada inklyuziv ta’limning jahon miqyosidagi rivojlanish tendensiyalari, xalqaro modellari hamda ularni O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llashning imkoniyatlari tahlil qilinadi. UNESCO, UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlarning inklyuziv ta’lim siyosati hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasi o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekiston amaliyotida inklyuziv ta’limni milliy qadriyatlar, etnopedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish yo‘llari yoritilgan. Maqolada muallif tomonidan inklyuziv ta’limni milliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.*

Аннотация: *В статье анализируются мировые тенденции развития инклюзивного образования, международные модели и возможности их применения в системе образования Узбекистана. Изучается политика ЮНЕСКО, ЮНИСЕФ и других международных организаций в области инклюзивного образования, а также опыт развитых стран. Также освещаются пути совершенствования инклюзивного образования в практике Узбекистана на основе национальных ценностей, этнопедагогических подходов. В статье представлены рекомендации автора по адаптации инклюзивного образования к национальным условиям.*

Abstract: *The article analyzes global trends in the development of inclusive education, international models, and the possibilities of their application in the education system of Uzbekistan. It examines the policies of UNESCO, UNICEF, and other international organizations in the field of inclusive education, as well as the experience of developed countries. The article also highlights ways to improve inclusive education practices in Uzbekistan based on national values and ethnopedagogical approaches. The author provides recommendations for adapting inclusive education to national conditions.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, xalqaro tajriba, jahon modeli, Salamanca deklaratsiyasi, UNESCO, etnopedagogika, O‘zbekiston ta’lim tizimi, maxsus ehtiyojli bolalar, bag‘rikenglik, ijtimoiy adolat, pedagogik innovatsiyalar, ta’lim siyosati.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, международный опыт, мировая модель, Саламанкская декларация, ЮНЕСКО, этнопедагогика, узбекская система образования, дети с особыми потребностями, толерантность, социальная справедливость, педагогические инновации, образовательная политика.*

Key words: *inclusive education, international experience, world model, Salamanca Declaration, UNESCO, ethnopedagogy, Uzbek education system, children with special needs, tolerance, social justice, pedagogical innovations, educational policy.*

Hozirgi globallashuv davrida inklyuziv ta’lim inson huquqlarini ta’minlash va har bir shaxsning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishning asosiy omili hisoblanadi. UNESCO tomonidan 1994 yilda qabul qilingan Salamanca deklaratsiyasi inklyuziv ta’limning xalqaro darajadagi huquqiy asosini yaratdi. Ushbu deklaratsiya barcha bolalar, jumladan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham ta’limda teng imkoniyatlarni ta’minlashni ko‘zda tutadi. Shu bois, bugungi kunda inklyuziv ta’lim siyosati dunyoning ko‘plab mamlakatlarida davlat ta’lim strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Bugun dunyoda nogironligi bo‘lgan qariyb 1 milliardga yaqin shaxs borligiga e’tibor qaratsak, bu chindan dolzarb masala ekani ko‘zga tashlanadi.

Dunyoda inson huquqlari degan oliy tushuncha bor. Bu har bir kishining jamiyatda mavjud barcha imkoniyatlardan birdek va barcha qatori teng foydalana olishini anglatadi. Imkoniyati cheklangan, nogironligi bor insonlar ham shular jumlasidan. Jamiyat bunday kishilarni boricha qabul qilib, teng munosabatda bo‘lishga o‘rganmas ekan, mamlakatda inson huquqlari kafolati to‘laqonli ta’minlangan, deb bo‘lmaydi.

Shu bois, yurtimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda munosib o‘rin egallashiga to‘siqsiz muhit yaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada qonuniy asoslar mustahkamlanib, qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Maqsad hayotiy faolligini oshirish orqali imkoniyati cheklangan insonlarni umidsizlik xamda ishonchsizlik kayfiyatidan xalos etish, yashashga ishtiyoqini oshirish hamda boshqalar qatori jamiyatda o‘z o‘rnini egallashiga ko‘maklashishdan iborat.

Inklyuziv ta’limning xalqaro modeli.

Jahon tajribasida inklyuziv ta’lim tizimlari turli madaniyat va ijtimoiy tuzumlarga mos tarzda shakllangan. Rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Finlyandiya, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliyada inklyuziv ta’lim o‘quv jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Finlyandiya modelida o‘quvchilar ehtiyojini aniqlash va shaxsiy ta’lim rejasini tuzish asosiy tamoyil hisoblanadi. Yaponiyada esa inklyuzivlik “hamkorlikda o‘qitish” yondashuvi orqali amalga oshiriladi. Bu tizimda har bir bola, uning imkoniyati qanday bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z tengdoshlari bilan birga o‘qiydi va ijtimoiy jihatdan faol bo‘lishga undaladi. Kanadada inklyuziv ta’lim inson huquqlari konsepsiyasi asosida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu mamlakatda o‘quvchilarning o‘zini jamiyat a’zosi sifatida his etishiga alohida e’tibor beriladi. Bunday yondashuv o‘qituvchining metodik tayyorgarligini va individual yondashuv kompetensiyalarini talab etadi. Inklyuziv ta’lim siyosati xalqaro tashkilotlar, hukumatlar va ta’lim muassasalarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ushbu siyosat nogironligi bo‘lgan talabalar, o‘qishdagi qiyinchiliklar va boshqa maxsus ehtiyojlar uchun ta’limdagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan. Inklyuziv ta’lim

siyosatini amalga oshirishga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi va ta’lim barcha uchun tashabbusi kabi turli global asoslar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondiradigan adolatli ta’lim tizimlari

zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu xalqaro kelishuvlar milliy siyosat va amaliyotlarni shakllantirishga yordam berdi, hukumatlarni ijtimoiy adolat va tenglikka erishish vositasi sifatida inklyuziv

ta’limga sarmoya kiritishga undadi. Natijada, ko‘plab mamlakatlar o‘z ta’lim tizimlarini barcha o‘quvchilar, ularning qobiliyatlaridan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun moslashtirdilar.

Inklyuziv ta’lim ilg‘or harakat bo‘lsa-da, dunyoning ko‘p joylarida hali ham davom etayotgan jarayondir. Ba’zi mamlakatlar inklyuziv amaliyotlarni joriy etishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, boshqalari nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar va boshqa maxsus ta’lim ehtiyojlarini to‘liq qamrab olishga to‘sqinlik qiladigan tizimli to‘siqlar bilan kurashishda davom etmoqda. Ba’zi mintaqalarda keng qamrovli siyosat tizimi yoki yetarli qo‘llab-quvvatlash tizimining yo‘qligi bu talabalarning chetda qolishiga olib keldi, ular ko‘pincha ommaviy ta’limdan chetda qoladilar. Shu sababli, inklyuziv ta’lim bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlarni chuqur tushunish ko‘proq o‘zgarishlarni rag‘batlantirish uchun juda muhimdir. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida inklyuziv ta’lim ko‘p jihatdan milliy ta’lim siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu yerlarda o‘qituvchilarni tayyorlash, resurslarni taqsimlash va o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari mukammal

yo‘lga qo‘yilgan. Boshqa tomondan, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma, malakali kadrlar va jamoatchilik xabardorligining yetishmasligi tufayli inklyuziv ta’lim maqsadlarini to‘liq amalga oshirish ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi.

Inklyuziv ta’limning ahamiyati tobora keng tan olinayotgan bir paytda, bu siyosatni amalga oshirishda o‘qituvchilarning roli ham ko‘proq e’tibor markaziga tushmoqda. O‘qituvchilar inklyuziv ta’lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ularning o‘qitish uslublari, sinfni boshqarish va baholash usullarini o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashtirishdagi mahorati juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, inklyuziv amaliyotlarni samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Jahon tajribasining O‘zbekiston sharoitiga mosligi.

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’lim so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda 2021–2030- yillarga mo‘ljallangan Ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi inklyuziv ta’limni joriy etish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonning bir qator umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim elementlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Jahon tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirish uchun milliy madaniyat va qadriyatlarni inobatga olish zarur. Shu nuqtayi nazardan, etnopedagogika tamoyillari O‘zbekiston sharoitida inklyuziv muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Xalq an’analaridagi mehr-shafqat, bag‘rikenglik, insonparvarlik qadriyatlari bolalarni jamiyatga to‘liq qo‘shilishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’i nazar, barcha bolalar davlat umumta’lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Ammo yaqin yillargacha imkoniyati

cheklangan bolalarning boshqa sog‘lom bolalar bilan teng sharoitda o‘qiyotgani bilan maqtana olmasdik. 2020-yilgi statistikaga ko‘ra, yurtimizdagi 3,2 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktabida 13 mingga yaqin o‘quvchi inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingandi. Bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2020-yildan inklyuziv ta’limga jiddiy e’tibor qaratildi.

Jumladan, 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga ilk bor inklyuziv (uyg‘unlashgan) ta’lim tushunchasi kiritildi. O‘zbekiston umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni joriy etish rejasi belgilab olindi. Unga ko‘ra, 2025-yilgacha alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalarning 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi ko‘zda tutilgan. Buning uchun jadal amaliy harakatlar qilinyapti. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konventsiyasi, Nogironlar huquqlari haqidagi deklaratsiyasi xalqaro tajribani o‘rganishda qo‘l kelmoqda. Davlatimiz rahbarining BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida bildirgan, imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini to‘la ro‘yobga chiqarish masalalari bo‘yicha mintaqaviy kengash tuzish borasidagi taklifini esa nogironligi bo‘lgan kishilar himoyasiga qaratilgan yana bir katta tashabbus, deyish mumkin.

Yana bir omil — hamkorlikni yo‘lga qo'yish. O'qituvchilar uchun hamkorlik va o‘zaro fikr almashish muhim. U o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, malakasini muntazam oshirishi, alohida ta’lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo‘llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yish kabi xislatlarga ega bo‘lish kerak.

Mamlakatimizda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish, sifat jihatidan takomillashtirib borish maqsad qilingan ekan, bu yo‘nalishda pedagoglarni tayyorlash talab etiladi. Bunda, ayniqsa, pedagogika yo‘nalishidagi OTMlar oldiga katta vazifalar qo‘yilgan.

UNICEFning O‘zbekistondagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri e’tibordan chetda qolgan bolalrni inklyuziv ta’lim bilan qamrab olishdir. UNICEFning Maktab binolarini universal loyihalash bo‘yicha yo‘riqnomasiga asoslanib, UNICEF nogironligi bo’lgan bolalar uchun qulay infratuzilmaga ega maktablarni loyihalashtirish, shuningdek, Toshkent shahridagi oddiy maktabda tegishli ishlarni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatladi. Bu mazkur yondashuvni yanada keng qo’llash uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. “Ishonch 2030” loyihasi doirasida ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va mamlakat bo‘ylab ellikta namunaviy maktabda inklyuziv texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha UNICEF hukumat bilan hamkorlik qilmoqda. Ushbu jarayon maktablar qurilishi va jihozlanishining joriy standartlarini ko'rib chiqish uchun asos bo'ldi, bu esa Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga 2027 yilgacha barcha yangi va ta’mirlangan maktablarning 20 foizida nogironligi bo’lgan bolalar uchun sharoitlar ta'minlanishi bo’yicha majburiyatini bajarishga yordam berdi. UNICEF va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi inklyuziv maktablarni modellashtirishni boshladi, bunda inklyuziv ta’limning yangi yo‘riqnomalari, standartlari/talablari va mexanizmlari inklyuziv ta’lim sifatini yuqori standartlarga ko‘tarish uchun yangi qonunchilik va siyosatlarni ishlab chiqishda ma’lumot berish uchun sinovdan o‘tkaziladi. Ushbu namunali maktablar ilg'or tajribani o’rganizh, namoyish etish va uni keng qo’llashga ko’mak beradi.

Muammolar va istiqbollar.

Inklyuziv ta’limni joriy etishda bir qator muammolar mavjud: moddiy-texnik baza yetarli emasligi, o‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyati, metodik materiallarning cheklanganligi shular jumlasidandir. Biroq bu borada ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, pedagoglarni qayta tayyorlash markazlarida inklyuziv ta’lim bo‘yicha maxsus modullar joriy etilgan, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirilmoqda.

Kelgusida inklyuziv ta’limni yanada takomillashtirish uchun xalqaro tajribadan o‘rganilgan ilg‘or yondashuvlarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bu, bir tomondan, jahon standartlariga mos ta’lim tizimini yaratish, ikkinchi tomondan esa, o‘z milliy o‘zligimizni saqlagan holda inklyuzivlikni rivojlantirish imkonini beradi.

XULOSA

Inklyuziv ta’lim — bu har bir insonning ta’lim olish huquqini ta’minlaydigan global harakatdir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inklyuzivlikni ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli joriy etish uchun davlat siyosati, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, hamjamiyatning ijtimoiy madaniyati va etnopedagogik qadriyatlar uyg‘un bo‘lishi lozim. O‘zbekistonning bu yo‘nalishda olib borayotgan ishlari xalqaro andozalarga mos bo‘lib, inklyuziv ta’limni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish orqali yanada takomillashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. (1994). Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education.
2. UNICEF. (2020). Inclusive Education: Learning Together for All.
3. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). The Index for Inclusion. Bristol: CSIE.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021–2030 yillarga mo‘ljallangan Ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi.
6. Xoliqova, N. (2022). Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan nashriyoti.
7. Muhammedov G. “Inklyuzif ta’lim” Maqola. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 103-son 27.05.2023 yil.